

O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH YO'NALISHLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Ruzmamatov Abdulaziz Baxtiyorovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti KB-61 guruh talabasi

abdulaziz.ruzmamatov@tsue.uz

Ibragimov G'anijon G'ayratovich

*Ilmiy rahbar: Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish markazi boshlig'i –
Innovatsion Menejment kafedrasi dotsenti Phd, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
g.ibragimov@tsue.uz*

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi, uning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ahamiyati tizimli tarzda tahlil qilingan. Global miqyosda iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslar tanqisligi va ekologik muvozanatning buzilishi kabi omillar barqaror rivojlanish modeliga o'tishni talab etayotgan bir paytda, O'zbekiston uchun yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi milliy darajada iqtisodiy transformatsiyaning asosiy yo'nalishiga aylanmoqda. Tadqiqot Jahon banki, BMT, IHTT, Global Yashil O'sish Instituti va mustaqil tadqiqot kompaniyasi Enerdata kabi xalqaro tashkilotlarning hisobotlari asosida amalga oshirilib, mamlakatning energetika, qishloq xo'jaligi va transport sohalaridagi holati, mavjud muammolar hamda istiqbolli imkoniyatlar tahlil etilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston yashil iqtisodiyot sohasida sezilarli tabiiy va institutsional salohiyatga ega bo'lsa-da, ushbu salohiyatdan to'liq foydalanish uchun chuqur tizimli islohotlar zarur.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, yashil moliyalashtirish, institutsional islohotlar, energiya samaradorligi, ekologik siyosat, xalqaro hamkorlik.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of Uzbekistan's strategy for transitioning to a "green economy," emphasizing its economic, environmental, and social dimensions. As global challenges such as climate change, resource scarcity, and environmental degradation intensify, the transition toward sustainable development models has become an urgent necessity. For Uzbekistan, this process represents a key pillar of national economic transformation aimed at achieving energy efficiency, ecological resilience, and inclusive growth. The study draws on data and analytical reports from major international institutions, including the World Bank, UNDP, OECD, GGGI, and independent research company Enerdata, to evaluate Uzbekistan's current progress, challenges, and potential in the energy, agriculture, and transport sectors. Findings reveal that while Uzbekistan possesses substantial natural and institutional potential for green growth, accelerating the transition requires deep institutional reforms and effective policy

coordination. Priority areas include renewable energy development, waste management, water resource optimization, and the establishment of low-carbon transport systems.

Keywords: *Uzbekistan, green economy, sustainable development, green finance, institutional reforms, energy efficiency, environmental policy, international cooperation.*

KIRISH

Global miqyosda iqtisodiy o'sish bilan ekologik barqarorlik o'rtasidagi nomutanosiblik insoniyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid solmoqda. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning tanqisligi, chiqindilar hajmining ortishi hamda atrof-muhit ifloslanishining kuchayishi barqaror rivojlanish modelini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Yashil iqtisodiyot — bu iqtisodiy o'sishni saqlagan holda, ekologik xavf-xatarlarga nisbatan sezgir, resurslardan oqilona foydalanishga asoslangan rivojlanish modeli bo'lib, u Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi tomonidan global darajada ilgari surilgan[1]. Rivojlangan davlatlar, jumladan Janubiy Koreya, Germaniya, Daniya va Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik foyda keltiradi, balki yangi texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini oshirish va barqaror bandlikni ta'minlash orqali iqtisodiy o'sishni ham tezlashtiradi[2].

O'zbekiston uchun yashil iqtisodiyotga o'tish masalasi strategik ahamiyat kasb etadi. Mamlakat tabiiy resurslarga boy bo'lishiga qaramay, iqtisodiyot hali ham energiya intensiv sohalarga tayanadi. Mustaqil tadqiqot kompaniyasi bo'lmish Enerdataning 2023-yildagi hisobotiga ko'ra, O'zbekistonning yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi Yevropa Ittifoqi mamlakatlarinikidan uch baravar yuqori[3]. Bu esa resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish zaruratini ko'rsatadi. Hukumatimiz tomonidan 2019-yilda "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" qabul qilingan. Unda 2030-yilgacha qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushini, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik transportni kengaytirish kabi maqsadlar belgilangan[4]. Ushbu strategiya mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan. Shuningdek, O'zbekiston BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha konvensiyasiga taqdim etgan yangilangan Milliy belgilangan hissasi (Nationally Determined Contributions) orqali 2030-yilgacha issiqxona gazlari emissiyasini 35 foizga qisqartirish majburiyatini olgan[5]. Bu esa mamlakatimizning xalqaro iqlim siyosatidagi pozitsiyasini mustahkamlab, yashil transformatsiyani tezlashtirish zaruratini yanada oshiradi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, yashil iqtisodiyot siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish O'zbekiston uchun iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, investitsiyalarni jalb qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash imkonini beradi. Shu bois ushbu maqolada mamlakatning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi, mavjud muammolari va istiqbolli imkoniyatlari tizimli tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi XX asr oxiri va XXI asr boshida global iqtisodiy siyosatning markaziy tushunchasiga aylandi. Pearce, Markandya va Barbier o'zlarining "Blueprint for a Green Economy" da ta'riflashganidek, yashil iqtisodiyot "tabiiy kapitalni asrab-avaylagan holda iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi tizim" sifatida qaraladi[6]. Keyinchalik bu g'oya BMTning Atrof-muhit dasturi tomonidan 2011-yilda e'lon qilingan "Towards a Green Economy" hisobotida kengaytirilgan[1]. Ushbu manbada yashil iqtisodiyotning uch asosiy tamoyili – past karbonli ishlab chiqarish, resurs tejamlorligi va ijtimoiy inklyuziya – global rivojlanishning yangi modeli sifatida e'tirof etilgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ning 2023-yildagi "Financing Uzbekistan's Green Transition" hisobotidagi tadqiqotlariga ko'ra, yashil iqtisodiyotga o'tishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan institutsional islohotlar va yashil moliyalashtirish tizimining shakllanishiga bog'liq[7]. IHTT tahlilida rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yashil obligatsiyalar, iqlimga mos kredit liniyalari va xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish zarurligi ta'kidlanadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston uchun yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon banki tomonidan 2023-yilda tayyorlangan "Towards a Greener Economy in Uzbekistan: Country Environmental Assessment" hisobotida mamlakatning ekologik va iqtisodiy islohotlari tizimli ravishda tahlil qilingan[8]. Unda O'zbekistonning asosiy chaqiriqlari sifatida energiya samaradorligining pastligi, suv resurslari tanqisligi, chiqindilarni boshqarishdagi muammolar va iqlim xavflariga moslashuv darajasining yetarli emasligi qayd etiladi. Shu bilan birga, hisobotda yashil iqtisodiyot siyosatini milliy rivojlanish strategiyasi bilan integratsiya qilish, yashil investitsiyalarni rag'batlantirish va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan. BMTning Rivojlanish dasturi doirasida 2022-yilda o'zining "Green Recovery and Transition to a Green Economy in Uzbekistan" hisobotida yashil iqtisodiyotning ijtimoiy o'lchovlariga e'tibor qaratadi[9]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik foyda, balki yangi ish o'rinlari yaratish, ijtimoiy tenglikni kuchaytirish va aholi farovonligini oshirish imkonini beradi. Global Yashil O'sish Instituti tomonidan 2024-yilda ishlab chiqilgan "Country Planning Framework for Uzbekistan 2024–2028" hujjatida yashil iqtisodiyot sohasidagi

institutSIONal va texnologik imkoniyatlar baholangan[10]. Unda energetika, transport, suv xo'jaligi va chiqindilarni qayta ishlash sohalari O'zbekiston uchun eng istiqbolli "yashil o'sish drayverlari" sifatida ko'rsatilgan. Bundan tashqari, Enerdata ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda energiya samaradorligi so'nggi yillarda nisbatan yaxshilangani bilan, bu jarayon hali sekin kechmoqda[3]. Bu holat mamlakatda texnologik yangilanish, energiya tejamkor uskunalar va innovatsion ishlab chiqarish tizimlarini keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning yashil iqtisodiyot strategiyasi xalqaro tamoyillar bilan uyg'un, biroq ularning samarali amalga oshirilishi uchun tizimli boshqaruv, moliyaviy barqarorlik va xalqaro hamkorlik mexanizmlari mustahkamlashni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqotda O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyot" ga o'tish strategiyasi tizimli va tahliliy yondashuv asosida o'rganildi. Asosiy metodlar sifatida tizimli, sifat va qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi. Ma'lumotlar Jahon banki, IHTT, BMTning Rivojlanish va Atrof-muhit dasturi, Global Yashil O'sish Instituti va Enerdata kabi xalqaro manbalarning 2010–2024-yillar oralig'idagi hisobotlaridan olindi. Tizimli yondashuv yordamida iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi, qiyosiy yondashuv orqali O'zbekiston tajribasi boshqa davlatlar bilan solishtirildi. Metodologiya real muammolar, imkoniyatlar va institutsional omillarni aniqlashga qaratilgan bo'lib, sifat tahlili asosida amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyot" ga o'tish strategiyasi mamlakat iqtisodiy rivojlanish modelining yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu strategiyaning tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatda yashil iqtisodiyot tamoyillari nafaqat ekologik muhofaza siyosatida, balki sanoat, energetika va transport sohalarida ham bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Biroq, jarayonning samaradorligi hozircha davlat tashabbuslari bilan cheklangan, xususiY sektor va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlari hali yetarlicha rivojlanmagan. Jahon Bankining "World Development Indicators: Uzbekistan" tahliliga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyoti o'sish sur'atlarini saqlagan holda energiya iste'molini bosqichma-bosqich qisqartirishga muvaffaq bo'lgan. Bu mamlakatda iqtisodiy o'sish va ekologik yuk o'rtasidagi "decoupling" jarayonining boshlanayotganidan dalolat beradi[11]. Biroq, iqtisodiyot hali ham energiya intensiv tarmoqlarga tayanayotgani sababli, barqaror natijaga erishish uchun chuqur texnologik modernizatsiya zarur. Enerdata ma'lumotlari tahliliga ko'ra, O'zbekiston ishlab chiqarish sektorida energiya samaradorligi ortib bormoqda, ammo bu jarayonning sur'ati past. Bu holat yangi texnologiyalarni joriy etishdagi moliyaviy va institutsional to'siqlar bilan izohlanadi[3]. Enerdata fikricha, O'zbekistonda energiya tejoyvchi

texnologiyalarni joriy etishning asosiy muammosi – texnologik importning yuqori xarajatlari va ichki ishlab chiqarish salohiyatining cheklanganligidir. IHTTning hisobotida O‘zbekiston yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonidagi asosiy muammolar sifatida yashil moliyalashtirish mexanizmlarining sustligi, davlat-xususiy sheriklik tizimining zaifligi hamda byurokratik to‘siqlar keltiriladi[8]. Shu boisdan, iqtisodiy transformatsiyaning keyingi bosqichida yashil obligatsiyalar, iqlim moliyasi va mas’ul investitsiyalar bozorini rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ya’ni birinchi navbatda yashil obligatsiyalar orqali korxonalar ekologik loyihalarga kapital jalb qilishi mumkin, bu esa energiya tejamkor texnologiyalar, qayta tiklanuvchi manbalar va chiqindisiz ishlab chiqarish tizimlarini kengaytiradi. Iqlim moliyasi esa global moliya tizimi bilan integratsiyani kuchaytiradi. Chunki xalqaro investorlar tobora ko‘proq ijtimoiy-ekologik mas’uliyatli loyihalarga e’tibor qaratmoqda. Mas’ul investitsiyalar (ESG – Environmental, Social, Governance tamoyillariga asoslangan sarmoyalar) uzoq muddatda korxonalarning barqarorligini oshiradi va ijtimoiy ishonchni mustahkamlaydi.

Global Yashil O‘shish Intituti tomonidan tayyorlangan “Country Planning Framework” hujjatida O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot salohiyati yuqori ekani, ammo bu imkoniyatlardan foydalanish uchun energetika, qishloq xo‘jaligi va transport sohalarida institutsional islohotlar zarurligi qayd etilgan[10]. Hujjatda qayd etilishicha, mamlakatda tabiiy resurslar yetarli bo‘lsa-da, ularning samarali boshqaruv tizimi hali to‘liq shakllanmagan. Mamlakatimizda keng tabiiy resurslar bazasi – quyosh va shamol energiyasi, suv resurslari, unumdor yer maydonlari hamda boy biologik xilma-xillik mavjudligi sababli, yashil o‘shish modeliga o‘tish uchun qulay sharoitlarga ega deb ayta olamiz. Ammo shbu salohiyatni amalda ro‘yobga chiqarish uchun energetika, qishloq xo‘jaligi va transport sohalarida chuqur institutsional islohotlar talab etiladi. Energetika tizimida bu, avvalo, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish va uglerod chiqindilarini kamaytirishni anglatadi. Shu maqsadda davlat tomonidan investorlar uchun imtiyozli mexanizmlar yaratish, elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish va “yashil tariflar” tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo‘jaligida esa suv resurslaridan oqilona foydalanish, agroekologik yondashuvni kuchaytirish va barqaror ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirish zarur. Hozirgi kunda suv tanqisligi, yer degradatsiyasi va eskirgan sug‘orish tizimlari bu sohada asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, innovatsion texnologiyalar, masalan, tomchilatib sug‘orish, raqamli monitoring tizimlari va ekologik sertifikatlash mexanizmlarini keng joriy etish yashil iqtisodiyot tamoyillariga mos keladi. Transport sektorida esa kam uglerodli infratuzilmani rivojlantirish, jamoat transportini modernizatsiya qilish va elektromobillar uchun zarur infratuzilma yaratish orqali barqarorlikni ta’minlash

mumkin. Ayni paytda avtomobil transporti O'zbekistonda chiqindilarning sezilarli qismini tashkil etayotganini inobatga olsak, bu yo'nalishdagi islohotlar nafaqat ekologik, balki ijtimoiy sog'lom muhitni yaratishga ham xizmat qiladi.

O'zbekistonning yashil iqtisodiyot strategiyasi nafaqat ekologik muammolarga javob bo'lishi, balki yangi iqtisodiy o'sish modeli sifatida shakllanishi kerak. Chunki bu yo'nalish energetik xavfsizlikni ta'minlash, resurslardan tejamkor foydalanish, yangi ish o'rinlari yaratish va xalqaro investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi. Shu sababli, yashil transformatsiya faqat hukumat siyosati emas, balki biznes, fuqarolik jamiyati va xalqaro hamkorlik o'rtasidagi uzviy aloqaga asoslanishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi mamlakat iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylanib, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda sezilarli o'zgarishlarni boshlab bergan. So'nggi yillarda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, chiqindilarni boshqarish va ekologik bandlikni kengaytirish yo'nalishlarida ijobiy natijalar kuzatilmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiyotning yuqori energiya intensivligi, xususiy sektorning past ishtiroki va yashil moliyalashtirish mexanizmlarining sust rivojlanishi kabi muammolar mavjudligini ham e'tirof etish zarur. Umuman olganda, O'zbekiston yashil iqtisodiyot sohasida mintaqaviy miqyosda sezilarli salohiyatga ega. Mamlakatda tabiiy resurslar, quyosh va shamol energiyasi manbalari yetarli bo'lib, xalqaro hamkorlik uchun qulay sharoitlar mavjud. Shu bois, yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi iqtisodiy modernizatsiya jarayonini jadallashtirish, energiya xavfsizligini ta'minlash va xalqaro investitsiyalarni jalb etishning samarali vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar ilgari surildi:

- Institutsional islohotlarni chuqurlashtirish. Yashil iqtisodiyot siyosatini muvofiqlashtiruvchi yagona davlat organi yoki idoraaro platformani tashkil etish zarur. Bu davlat, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi.

- Yashil moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish. Xususiy sektorni jalb etish uchun soliq imtiyozlari, yashil kredit liniyalari va iqlimga mos investitsiya fondlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

- Texnologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash. Energiya tejamkor ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslarini boshqarish kabi yo'nalishlarda mahalliy ilmiy-tadqiqot institutlari va startaplarga grant va subsidiyalar berilishi lozim.

- Kadrlar tayyorlash va ekologik ta'limni rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan yangi kasblar (energiya menejeri, ekologik muhandis, chiqindi menejeri va boshqalar) bo'yicha o'quv dasturlari yaratish zarur.

- Xalqaro hamkorlikni kengaytirish. O'zbekistonning BMT, IHTT, Global Yashil O'sish Instituti va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikdagi loyihalarini tizimli muvofiqlashtirish, grantlar va texnik yordam dasturlarini milliy strategiyaga integratsiya qilish kerak.

- Hududiy yondashuvni kuchaytirish. Qoraqalpog'iston Respublikasi va cho'l mintaqalarida ekologik tiklanish, suv resurslarini boshqarish va yashil infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish zarur.

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlash, balki uzoq muddatda iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishga ham xizmat qiladi. Strategiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun davlat siyosati, ilmiy salohiyat va xalqaro hamkorlik uyg'unligi muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. United Nations Environment Programme. *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication*. – Nairobi: UNEP, 2011. – p. 10.

2. Organisation for Economic Co-operation and Development. *Green Growth in Practice: Lessons from Country Experiences*. – Paris: OECD Publishing, 2020. – p. 34.

3. Enerdata. *Uzbekistan Energy Report*. – Grenoble: Enerdata Publishing, 2023. – p. 15.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. *2019–2030-yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi to'g'risida qaror (PQ-4477)*. – T.: Adliya nashriyoti, 2019.

5. United Nations Framework Convention on Climate Change (UNFCCC). *Updated Nationally Determined Contribution of Uzbekistan*. – Bonn: UNFCCC Secretariat, 2021. – p. 7.

6. Pearce, D., Markandya, A., & Barbier, E. *Blueprint for a Green Economy*. – London: Earthscan Publications, 1989. – p. 5.

7. Organisation for Economic Co-operation and Development. *Financing Uzbekistan's Green Transition*. – Paris: OECD Publishing, 2023. – p. 27.

8. World Bank. *Towards a Greener Economy in Uzbekistan: Country Environmental Assessment*. – Washington: The World Bank, 2023. – p. 19.

9. United Nations Development Programme. *Green Recovery and Transition to a Green Economy in Uzbekistan*. – T.: UNDP Uzbekistan Office, 2022. – p. 6.

10. Global Green Growth Institute. *Uzbekistan Country Planning Framework 2024–2028*. – Seoul: GGGI, 2024. – p. 12-19.
11. World Bank. *World Development Indicators: Uzbekistan*. – Washington: The World Bank, 2023. – p. 21.